



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BANKLARIGA OMONATLAR VA UZOQ MUDDATLI SUG‘URTADAN DAROMAD Olish MASALALARI

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat Xavfsizligi

universiteti “Iqtisodiy fanlar” kafedrası

katta o‘qituvchisi i.f.b.f.d (Phd)

Usmonov Shavkatjon Shukurovich.

E-mail: shavkatjonusmonov3007@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasi moliya tizimida bank omonatlari va uzoq muddatli sug‘urta xizmatlari orqali aholi hamda xo‘jalik yurituvchi subyektlarning daromad olish imkoniyatlari tahlil qilindi. Shuningdek, uzoq muddatli hayot sug‘urtasi va jamg‘arib boriladigan sug‘urta mahsulotlarining moliyaviy barqarorlikni ta‘minlashdagi o‘rni, investitsion jozibadorligi hamda soliq imtiyozlari asosida qo‘shimcha daromad shakllantirish mexanizmlari yoritiladi. Maqolada bank omonatlari va sug‘urta instrumentlarining afzallik va kamchiliklari solishtirma tahlil qilinib, ularning risk darajasi, likvidligi va uzoq muddatli kapitalni shakllantirishdagi ahamiyati asoslab berildi.

Kalit so‘zlar: bank omonatlari, depozit siyosati, foiz stavkasi, uzoq muddatli sug‘urta, hayot sug‘urtasi, jamg‘arib boriladigan sug‘urta, investitsiya daromadi, moliyaviy barqarorlik, risk va likvidlik, kapitalni diversifikatsiya qilish.

ДОХОДНОСТЬ БАНКОВСКИХ ВКЛАДОВ И ДОЛГОСРОЧНОГО СТРАХОВАНИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

Аннотация: В данной статье анализируются возможности получения дохода населением и хозяйствующими субъектами через банковские вклады и услуги долгосрочного страхования в финансовой системе Республика Узбекистан. Также освещается роль долгосрочного страхования жизни и



накопительных страховых продуктов в обеспечении финансовой устойчивости, их инвестиционная привлекательность и механизмы формирования дополнительного дохода на основе налоговых льгот. В статье проводится сравнительный анализ преимуществ и недостатков банковских вкладов и страховых инструментов, обосновывается их значение с точки зрения уровня риска, ликвидности и формирования долгосрочного капитал.

Ключевые слова: банковские вклады, депозитная политика, процентная ставка, долгосрочное страхование, страхование жизни, накопительное страхование, инвестиционный доход, финансовая устойчивость, риск и ликвидность, диверсификация капитала.

INCOME GENERATION FROM BANK DEPOSITS AND LONG-TERM INSURANCE IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Abstract: This article analyzes the opportunities for income generation for households and business entities through bank deposits and long-term insurance services within the financial system of the Republic of Uzbekistan. The study also highlights the role of long-term life insurance and endowment insurance products in ensuring financial stability, their investment attractiveness, and the mechanisms for generating additional income based on tax incentives. A comparative analysis of the advantages and disadvantages of bank deposits and insurance instruments is provided, substantiating their importance in terms of risk level, liquidity, and long-term capital formation.

Keywords: bank deposits, deposit policy, interest rate, long-term insurance, life insurance, endowment insurance, investment income, financial stability, risk and liquidity, capital diversification.

Bugungi kunda banklarni moliyalashtirishda depozitlarning oʻrni birnecha bora kamayib bormoqda. Shu sababdan baklarga yanda koʻproq depozitlarni jalb qilish



uchun bu sohani bir qancha isloh qilish dolzarb masalalardan biri xisoblanadi. Ushbu muammo bo'yicha jaxon tajribasi va iqtisodchi olimlarning bu muammoga nisbatan innovatsion yondashuvlaridan andoza olish va uni milliy bank tizimiga integratsiya qilish kelajakda banklarning depozitlar orqali moliyalashuvi rivojlanishi va ularning miqdori oshishini ta'minlaydi.

Bu borada 2020 - 2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasiga muvofiq bank sektorini isloh qilishning asosiy yo'nalishlari etib belgilangan: bank tizimi aktivlarining umumiy hajmida davlat ulushi bo'lmagan banklar aktivlari ulushini joriy 15 foizdan 2025-yilga kelib 60 foizgacha oshirish maqsadlari qo'yildi[1].

Banklar majburiyatlarining umumiy hajmida banklarning xususiy sektor oldidagi majburiyatlari ulushini joriy 28 foizdan 2025-yil yakuniga 70 foizgacha oshirish; 2025-yilga kelib davlat ulushi mavjud kamida uchta bank kapitallariga zarur tajriba, bilim va obro'ga ega kamida uchta strategik xorijiy investorlarni jalb qilish; umumiy kreditlash hajmida nobank kredit tashkilotlari ulushini joriy 0,35 foizdan 2025-yilga kelib 4 foizgacha oshirish rejalari amalga oshirildi[2].

O'zbekistonda omonatlarni davlat tomonidan kafolatlash tizimi yaratilgan bo'lib, ushbu tizim muayyan vaziyatlar ro'y berganda fuqarolarga pul mablag'larni qaytarib berishni ta'minlaydi. Ushbu tizim omonat hajmi va valyutasidan qat'iy nazar, 2025 yilda qabul qilingan "Banklardagi omonatlarni himoya qilish kafolatlari to'g'risida"gi qonun bilan Davlat jismoniy va yuridik shaxslarning depozitlarini 200 million so'mgacha kafolatlaydi – jismoniy va yuridik shaxslarning omonatlari davlat tomonidan himoyalanaadi. Bunday tizim esa barcha mamlakatlarda ham ishlayvermaydi[3]. Masalan:

Rossiya – \$14,300 (186 mln so'm)

Ukraina – \$20,000 (260 mln so'm)

Moldova – \$10,700 (139 mln so'm)

Belarus – \$10,000 (130 mln so'm)



Serbiya – \$16,000 (208 mln so'm)

Chexiya – \$13,000 (169 mln so'm)

Slovakiya – \$14,000 (182 mln so'm)

Litva – \$15,000 (195 mln so'm)

Estoniya – \$18,000 (234 mln so'm)

Bolgariya – \$17,000 (221 mln so'm)

Ruminiya – \$15,500 (202 mln so'm)[4].

Shuningdek yuridik shaxslar va tadbirkorlar uchun kafolat – ilgari faqat fuqarolarga tatbiq etilgan kafolat endilikda biznes uchun ham amal qiladi;

Omonatni qaytarish muddati 83 kundan 7 kungacha kamaytiriladi – 2026 yil 1 yanvardan 15 kun, 2027 yil 1 yanvardan esa 7 kun bo'ladi;

Omonatlarni kafolatlash agentligi tashkil etildi – bank tizimidagi barqarorlikni ta'minlash uchun yangi institut ish boshlaydi;

99,7% omonatchilarning mablag'lari to'liq himoyalaniadi – bu esa bankka ishonchni yanada mustahkamlaydi [1].

Jami depozitlar hajmi: 2025 yil yakunida 308,6 trln so'm (2017 yilda 37 trln so'm)ni tashkil etib, bundan:

Jismoniy shaxslarning umumiy omonatlari: 122,5 trln so'm;

200 mln so'mgacha bo'lgan omonatchilar ulushi: 99.7% (122.1 trillion so'm)

200 mln so'mdan ortiq omonatchilar ulushi: 0.4% [5].

Shu sababdan tijorat banklari omonatlar hajmini kengaytirishlari sezilarli darajada qulay hisoblanadi, chunki bundagi risklar davlat tomonidan kafolatlanmoqda. Bundan banklarda omonatlar miqdorini kengayishiga e'tibor qaratish o'ta dolzarb ekanini xulosa qilishimiz mumkin. 2-jadval Tijorat banklar olgan kreditlar va lizing operatsiyalari(mlrs so'm)³ Hozirda O'zbekistinda eng yuqori omonat qo'yilmalari mavjud bo'lgan tijorat banklari quyidagilar: 1. TBC bank – 24 oyga 22% df 2. Davr bank – 24 oyga 22% 3. Ipoteka bank – 24 oyga 21%



Shu bilan birgalikda O'zbekiston banklari deopozitlar foiz darajasi darajasi balandligi bo'yicha 5-o'rinda turibti.

Banklarda depozitlarga e'tiborni yanada oshirishga asosiy argument sifatida ko'rishimiz mumkinki, 01.02.2024 holatiga ko'ra O'zbekistonda banklardagi depozitlar miqdori 242 119 mlrd so'm o'tgan moliya yilining mos davrida 214 197mlrd so'm bo'lgan, 13% ijobiy o'sishni ko'rishimiz mumkin. Depozit va depozit sertifikatlari mablag'lari qoldig'i(mlrd so'm) Lekin tijorat banklarimiz tomonidan olingan kreditlar va lizing operatsiyalari miqdori 221 444mrd so'm bu esa o'tgan moliya yilining mosdavrida 189 849mrd so'm bo'lgan, 17% ijobiy o'sish. Bu yerda tijorat banklaridagi omonatlar olingan kreditlarga nisbatan miqdor jixatdan ko'p bo'lsada, olingan kreditlarning nisbiy o'sisha sezilarli darajada katta[6]. Demak, banklarni moliyasida omonatlar yoki berilgan kreditlardan tushgan daromadlari yetmaganligi tufayli, tijorat banklarimiz kredit olishga majbur bo'lganlar.

Keyns deposit haqida shunday degan "Amaliyotda ko'pincha bankdagi muddatli depozitni pulga qo'shish qulaydir... "Pul to'g'risidagi traktat"imda bo'lgani kabi, pul bank depozitlari bilan birga bo'ladi.

Countries ▲ ▼	Latest value ▲	Reference ▲ ▼	Three months ago ▲ ▼	One year ago ▲ ▼
Argentina	116.76	Dec / 2023	112.41	70.42
Turkey	42.29	Dec / 2023	35.61	20.98
Venezuela	36.00	Dec / 2023	36.00	36.00
Suriname	25.29	Dec / 2023	20.19	18.63
Uzbekistan	20.74	Dec / 2023	20.58	20.47
Tajikistan	16.61	Jan / 2024	14.30	12.80
Kazakhstan	14.30	Oct / 2023	14.10	12.50
Mongolia	13.80	Jan / 2024	13.23	12.48
Egypt	13.60	Dec / 2023	12.70	9.40
Belarus	13.21	Jan / 2022	16.76	18.31
Ukraine	13.03	Dec / 2023	13.63	11.81
Russia	12.89	Dec / 2023	9.47	5.48
Kyrgyzstan	12.66	Sep / 2023	12.23	13.18
Colombia	12.63	Dec / 2023	13.07	13.42
Uganda	11.88	Dec / 2023	10.29	10.72

1-rasm. Jahon bo'yicha deposit foiz stavkalari eng yuqori davlatlar[7].



Rasmda jahon bo'yicha depozir foizlari eng yuqori bo'lgan davlatlar jadvali keltirilgan. Uning ichida foiz stavkalari haqida eng oxirgi ma'lumot, 3 oy avvalgi daraja va 1 yil avvalgi foiz stavkari berilgan. Bunda depozitlarning o'rtacha eng yuqori foiz stavkalari Argentina – 116%, Turkiya – 42%, Venesuela – 36%, Surinam – 25% va keyin O'zbekiston – 20%. Ko'rishimiz mumkinki, deposit stavkalari davlatdagi inflyatsiya darajasiga bevosita bog'liq bo'lgani tufayli bu jadvaldagi birinchi uchta davlat yuqori inflyatsiya darajasi kuzatilinadigan davlatlar xisoblanadi. O'zbekistonda bo'lsa, kredit foizlari yuqoriligi va unga talabning yuqoriligi, shu bilan birgalikda omonatga pullar nisbatan kam qo'yilganligi tufayli omonat foizlari yuqori. Chunki, omonat foizlari yuqoriligi ham uni jozibaliroq qilishga qaratilgan bo'lib, banklarda kapitalning ko'proq va tezroq jamlanishiga qaratilgandir. Bu elementlar esa bankning kapital aylanmasi tezlashishi hamda bank operatsiyalarini amalga oshirish samaradorligi rentabelligini oshishiga olib keladi. Natijada davlat ulushu bo'lgan banklarda davlat ulushi birmuncha kamayib mustaqilligi oshishiga olib keladi. Xususiy banklarda esa aylanma kapitalining oshishi va bank faoliyatini kengroq, jadal olib borishiga sabab bo'ladi.

"EUROASIA LIFE INSURANCE" Toshkent shahar filiali direktori Abdujalil Mametov O'zbekistonda jamg'arma turini tanlashga bog'liq moliyaviy operatsiyalarga nisbatan quyidagicha fikr bildirgan - "Hayotni sug'urta qilish shartnomasi turli maqsadlar uchun tuziladi, masalan: beparvo qarilik uchun o'z moliyaviy yostig'ini yaratish, ishonchli foydali pul investitsiyalari, bolalarga sifatli ta'lim berish va boshqa bir qator holatlar uchun ko'zda tutiladi. Bunda eng muhimi, hayot sug'urtasi yordamida nafaqat hayotingizni kutilmagan hodisalardan sug'urtalash, balki mablag'ni samarali tejashingiz ham mumkin.

Bonus sifatida sizning jamg'armalaringiz 4% dan 7% gacha bo'lgan bonuslarga ega bo'ladi. Bundan tashqari, joriy soliq imtiyozlarini ta'kidlash joiz, bu sizga har oylik badallarni 12% daromad solig'isiz to'liq yuborish imkonini beradi. Masalan,



hayotni sug'urta qilish uchun har oy 1 000 000 so'm yuborib, 12 oy ichida sizda 12 600 000 so'm (yig'ilgan summa va Kompaniyaning bonusu to'planishi mumkin.

Bank omonatida siz 12 oylik muddatga jamg'arma maqsadini ham tanlashingiz mumkin. 1 000 000 so'm kursida. Yillik 26% stavkada bank depozitiga mablag' kiritib, yakunda siz barcha hisoblangan foizlarni hisobga olgan holda 12 600 000 so'm jamg'arasiz" degan.

KapDepo investitsion kompaniyasi tahlilchisi, CFI Muzaffar Roziqov tadqiqotiga ko'ra bankka omonat qo'yish yoki fond birjasiga sarmoya kiritishni farqlarini tahlil qilgan. Unga ko'ra, "Bank depozitlari Afzalliklari: -Bashorat qilinadigan, ishonchli va psixologik jihatdan qulay investitsiya vositasi. -Soliqqa tortilmaydi -Daromadlilik oldindan belgilanadi. Kamchiliklari ham bor:

- past daromadlilik - bank depozitlari bo'yicha stavka har doim ham inflyatsiyadan yuqori emas;

- cheklangan likvidlik - ko'p foizli depozitlardan pulni muddatidan oldin faqatgina foizlarni yo'qotish evaziga olish mumkin;

- foyda olish vositasi emas, balki saqlash vositasi.

Aksiya afzalliklarini ko'rib chiqsak:

- qisqa muddatli o'zgaruvchanlik bilan birgalikda yuqori daromadlilik;

- aksiyalardan keladigan daromad - bu ularni narxining o'sishi va dividend daromadlaridir;

- yuqori likvidlik - aksiyalarni sotib olish va sotish operatsiyalari bir necha soniyada amalga oshadi;

- moslashuvchanlik - tanlangan strategiyaga qarab, portfeldagi qimmatli qog'ozlar bilan to'ldirish orqali, xavf va rentabellikni muvozanatlashtiriladi;

- kichik miqdordagi kapitalni ham investitsiya qilish mumkin.

Xatarlar yuqoridagi vositaga qaraganda yuqori. Daromadlilik kafolatlanmaydi.



XULOSA

Yuqoridagi qiyosiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, uzoq muddatli istiqbolda aksiyalar va uzoq muddatli hayot sug'urtasi bo'yicha daromad omonatlarga qaraganda yuqoriligi, ammo qisqa va o'rta davrda bankka omonat qo'yish foydaliroq ko'rishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasi moliya tizimida bank omonatlari va uzoq muddatli sug'urta instrumentlari aholi hamda xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun muhim daromad manbai hisoblanadi. Qisqa va o'rta muddatli istiqbolda bank omonatlari barqarorlik, kafolatlangan daromad va past risk darajasi bilan ajralib turadi. Uzoq muddatli istiqbolda esa jamg'arib boriladigan hayot sug'urtasi va kapital bozor instrumentlari yuqoriroq daromadlilik imkoniyatini yaratadi, biroq ularning risk darajasi nisbatan yuqori hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tijorat banklarida kreditlar o'sish sur'ati depozitlar o'sishiga nisbatan yuqoriroq bo'lib, bu banklarning resurs bazasini mustahkamlash zarurligini anglatadi. Shu bois moliya tizimida uzoq muddatli va barqaror ichki resurslarni shakllantirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq:

Birinchidan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan inflyatsiya darajasini nazorat qilish va real foiz stavkalarini ijobiy darajada saqlash orqali depozitlarning jozibadorligini oshirish zarur. Uzoq muddatli depozitlar uchun rag'batlantiruvchi foiz siyosatini qo'llash maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, jamg'arib boriladigan hayot sug'urtasi bo'yicha soliq imtiyozlarini kengaytirish va aholiga ushbu mexanizmlar haqida keng tushuntirish ishlarini olib borish lozim. Sug'urta bozorida shaffoflik va ishonchlilikni oshirish orqali uzoq muddatli investitsiya muhitini yaxshilash mumkin.



Uchinchidan, bank va sug'urta sektorida integratsiyalashgan moliyaviy mahsulotlarni joriy etish orqali aholining jamg'arma kiritish motivatsiyasini kuchaytirish zarur.

To'rtinchidan, moliyaviy savodxonlikni oshirish bo'yicha tizimli dasturlarni amalga oshirish, risk va daromadlilik o'rtasidagi bog'liqlikni keng jamoatchilikka tushuntirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Beshinchidan, bank tizimini isloh qilish strategiyasi doirasida xususiy sektor ulushini oshirish va ichki resurslar hisobiga moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish zarur.

Xulosa qilib aytganda, bank omonatlari va uzoq muddatli sug'urta instrumentlarining uyg'un rivojlanishi mamlakat moliya tizimi barqarorligini ta'minlaydi, aholi jamg'armalarining samarali boshqarilishiga xizmat qiladi hamda uzoq muddatli iqtisodiy o'sish uchun mustahkam moliyaviy asos yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Pul-kredit siyosati sharhi 2024-yil yakuni bo'yicha. – Toshkent, 2025.
2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Bank tizimi barqarorligi to'g'risida hisobot 2024. – Toshkent, 2025.
3. O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 18-fevraldagi "Banklardagi omonatlarni himoya qilish kafolatlari to'g'risida"gi O'RQ-1031-son Qonuni.
4. OECD. Global Insurance Market Trends 2023. – Paris, 2023.
5. World Bank. Uzbekistan Financial Sector Reform Project Report. – Washington DC, 2025.
6. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. 2020–2025-yillarga mo'ljallangan bank tizimini isloh qilish strategiyasi sharhi. – Toshkent, 2024.
7. International Monetary Fund. Republic of Uzbekistan: Financial Sector Assessment Program (FSAP). – Washington DC, 2022.

<https://orcid.org/0009-0006-1118-3465>